



## CIVILIZATIONAL APPROACH TO SOCIETY AND ITS DEVELOPMENT

**Akmaljon Hakimov**

senior lecturer

Kokand branch of Tashkent State Technical University  
Uzbekistan, Kokand

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** society, development, civilization, civilizational approach, formative approach, social knowledge, laws of social life, development.

**Abstract:** This article provides comments on the concepts of society, development, civilization, civilizational approach, and explains its features on a scientific basis.

**Received:** 30.11.24

**Accepted:** 02.12.24

**Published:** 04.12.24

## JAMIYAT VA UNING TARAQQIYOTIGA SIVILIZATSION YONDASHUV

**Akmaljon Hakimov**

katta o'qituvchi

Toshkent davlat texnika universiteti Qo'qon filiali  
O'zbekiston, Qo'qon

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** jamiyat, taraqqiyot, sivilizatsiya, sivilizatsion yondashuv, formatsion yondashuv, ijtimoiy bilish, Ijtimoiy hayat, taraqqiyoti qonunlari.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyat, taraqqiyot, sivilizatsiya, sivilizatsion yondashuv tushunchalari hususida izohlar berilib, o'ziga xos hususiyatlari ilmiy asosda yoritilgan.

## ЦИВИЛИЗАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ОБЩЕСТВУ И ЕГО РАЗВИТИЮ

**Акмалжон Хакимов**

старший преподаватель

Кокандский филиал Ташкентского государственного технического университета  
Узбекистан, Коканд

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** общество, развитие, цивилизация, цивилизационный подход, формирующий подход, социальное знание, законы социальной жизни, развитие.

**Аннотация:** В данной статье даются комментарии к понятиям общество, развитие, цивилизация, цивилизационный подход, а также на научной основе объясняются его особенности.

## KIRISH

Ma'lumki, jamiyat rivoji va taraqqiyoti o'z-o'zini tashkil etadigan hamda o'z-o'zidan harakatlanadigan tizim sifatida juda murakkab darajada tashkil topgan mohiyatdan iborat. Jamiyat mohiyati va mazmunini o'rganishga bag'ishlangan adabiyot va manbalar bilan atroficha tanishish, garchi, uning taraqqiyotini o'rganishga bag'ishlangan yondashuvlarning anchagina ekanligini sanash mumkin bo'lsa-da, biroq ularning orasida jamiyatning murakkab mohiyat sifatidagi mazmunini ochib berishda, bizningcha sivilizatsion yondashuv ko'pchilikning e'tiborini ko'proq tortishganlgini alohida qayd etib o'tish zarur.

Ijtimoiy mavjudot bo'lgan insonni va uning yashashi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish borasidagi kishilarning birgalikdagi faoliyatlarini jamiyatning asosini tashkil etadi. Ijtimoiy hayot – moddiy olam harakatining oliy shakli hisoblanadi. Jamiyat tabiatning revolyusiyasi natijasida vujudga kelib, dastlabki davrdanok o'ziga xos tuzilmaga ega bo'lgan sistema sifatida shakllandi. Yaxlit sistema bo'lgan jamiyat tarkibiga : moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlarning turli shakllari, bazis va ustqurma, jamiyatni ijtimoiy tuzilishi, siyosiy institutlar va boshqalar kiradi.

## ASOSIY QISM

Jamiyat haqidagi falsafiy qarashlar uzoq muddat davomida rivojlanib kelgan. Jamiyat haqidagi datlabki fikrlar allaqachon qadimgi Yunonistonda shakllangan edi. Materialist faylasuflardan Demokrit insoniyat tarixini tabiiy jarayon sifatida baholab, kishilarni hayvoniy holatdan ijtimoiy holatga o'tishini yetishmovchilik yordamida tushuntirgan. Ijtimoiy hayot odamlarning qonun oldida tengligi, ularning aql kuchiga ishonch bilan, murakkab ijtimoiy – axloqiy muamolarni bilish va xal etish kobiliyati bilan farqlanadi. Qadimgi dunening yana bir mashxur mo'taffakkiri – Aflatun «ideal davlat» haqida ta'limot yaratib, jamiyat hayotini aql asosida tashkil qilish, inson tabiatini va adolat o'rtaida aloqa o'rnatishga harakat qilgan. Ijtimoiy falsafa sohasidagi muhim g'oyalar Arastu tomonidan ilgari surilgan. U jamiyatni ma'lum ijtimoiy institutlarini qondirish maqsadida birlashgan individlarni yig'indisi deb qaraydi. Inson haqidagi ta'limotda insondagi eng asosiy xususiyatlar sifatida ma'naviyat va axloqni ta'kidlaydi.

O'rta asrlar sharoitida ijtimoiy hayotni tushuntirish diniy asosda olib borilgan. Bu davrdagi qarashlarga ko'ra, jamiyat tarixi avvaldan Xudo tomonidan belgilanib qo'yilgan. Ijtimoiy hayot unsurlari esa odamlarning aybdorligidan kelib chiqadi. F. Akvinskiy fikricha, jamiyat azaldan tengsizlikka asoslanadi va odamlar bunga itoat qilishlari kerak. Jamiyatning kelib chiqishi, uning taraqqiy etish qonuniyatları haqida Sharq mutaffakirlari Farobi, Beruniy, Ibn Sino va boshqalar bir qancha ajoyib fikrlarni ilgari surganlar.

Farobiy ham, jamiyat insonlarning xohishi bilan o‘zlariga kerak bo‘lgan iste’mol maxsulotlarini bирgalashib ishlab chиqarish niyatida tashkil etilgan jamoa birlashmasi deb yozadi, o‘zining «Fozil odamlar shahri» asarida.

«Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham, odamlar insoniyat turkumiga kirganlari tufayli o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.»[1] Beruniy fikricha, jamiyat insonlar tomonidan «shartnoma» asosida to‘zilgan. Uningcha, «inson o‘z ehtiyojlarini tushunib, o‘ziga xos o‘xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o‘zaro kelishuvchanlik kabilidagi «shartnoma» tuzishga kirishadi. Odamlarning bирgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish ham zarurdir.»[2]

Yangi davr mutaffakkirlari diniy qarashlarga zid ravishda jamiyat tabiiy yo‘l bilan vujudga kelgan va shunday rivojlanadi degan fikrni ilgari surdilar. Gobbs, Russo kabi faylasuflar jamiyatni vujudga kelishida shartnoma konsepsiyasini ishlab chiqdilar. Fuqarolar jamiyatni individlar yig‘indisi sifatida qaraldi va mexanik tarzda o‘rganildi.

Nemis faylasufi Gegelning ko‘rsatishicha, jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarining asosiy sababi «mutlaq g‘oya»ga bog‘liqdir. Nemis klassik falsafasining yana bir yirik vakili L. Feyerbax fukarolar jamiyatini substansiya asosida birlashgan individlar yig‘indisi sifatida baholaydi. Yevropada yashagan sotsiologlar orasida jamiyat haqidagi fanga ilg‘or g‘oyalar qo‘sghan olimlar ingliz burjua iqtisodchilari V. Peti, A. Smit, D. Vikardo va boshqalardir.

Jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ma’lum darajada to‘g‘ri izoxlash sohasida rus ilg‘or demokratlarining ham xissasi bor. Jamiyat taraqqiyotining har taraflama materialistik talkini K.Marks va F. Engels asarlarida ilgari surilgan. Jamiyat hayotini tushuntirishda ular ijtimoiy borliq, ijtimoiy ong, ijtimoiy – iqtisodiy formatsiya, bazis va ustqurma kabi tushunchalarga murojaat kildilar. Ijtimoiy taraqqiyotning asosi sifatida marksizm klassiklari ijtimoiy ishlab chиqarishni olib qarashdi.

Moddiy ishlab chиqarishning ma’lum usuliga asoslangan jamiyat taraqqiyotining tarixiy bosqichini ijtimoiy – iqtisodiy formatsiya deb nomlandi. XX asrning ikkinchi yarmi ijtimoiy reallikni konkret ilmiy bilimlar : geografiya, biologiya, kibernetika, sinergetika, psixologiya va boshqalar yordamida tushuntirishga o‘rinishlar bo‘ldi. (F.Ratselg‘, G. Spenser, M. Veber, Z. Freyd, Z. Pieje) . Ilmiy – texnika inkilobi sharoitida texnik – texnologik omillar asosida ijtimoiy sistemaning modelini yaratishga harakat qilinmoqda, ijtimoiy hayotning turli tomonlari muqaddaslashtirilmoqda.

Hozirgi zamон jamiyat o‘ta murakkab va faol ijtimoiy tizimdir. Iqtisodiy, siyosiy va ahloqiy munosabatlar uyg‘unlashayotgan davrda fuqarolik jamiyat taraqqiyotini o‘rganish

dolzarb masaladir. Ushbu mavzuni yoritishda bir qancha muhim, zaruriy tushunchalar borki, ularni ilmiy tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. sivilizatsiya tushunchasi va uning kelib chiqish tarixi hususida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, bu atama jamiyatning ma’lum bir rivojlanish darajasi belgisi sifatida paydo bo‘lgan. Bu atamani birinchi bo‘lib, ingliz faylasufi Adam Fergyuson (1723-1816) o‘zining "Fuqarolik jamiyat tarixi tarixi" (1766) asarida ilmiy muomalaga kiritganligiga ittifoq qilingan.

Yondashuvlar orasida juda ko‘p uchraydigani “sivilizatsiya” tushunchasini “madaniyat” tushunchasi bilan taqqoslashga urinishlardir. Biroq, bizningcha, “madaniyat” (lotinchada cultura – yerga ishlov berish) tushunchasi “sivilizatsiya” tushunchasi bilan aynan bir xil emas, balki o‘zaro farq qiladigan bir qator jihatlarga ega. Bu to‘g‘rida taniqli mutaxassis S.M. Pozdyaeva ta’kidlaganidek, “Hozirgi dunyoda madaniyatlar ko‘p, sivilizatsiya esa bitta... va sivilizatsiya deganda jamiyat rivoji, uning madaniy va ma’naviy madaniyati taraqqiyotining darajasi va bosqichi tushuniladi. Ana shu ma’noda sivilizatsiya tabiat kuchlarini o‘zlashtirish usuli va darajasini anglatadi. Madaniyat esa inson tomonidan o‘z kuchi yordamida tabiatni o‘zlashtirish oqibatida paydo bo‘ladi”[3].

Sivilizatsion yondashuvning mohiyati quyidagilardan iborat, deb ko‘rsatish mumkin. Insoniyat tarixida alohida jamoalar ajralib turadi, ularning a’zolari madaniyat, qadriyatlar tizimi va xulq-atvor uslubi, mentalitet bilan birlashtirilgan, turlixil siyosiy institatlarga, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy ko‘rinishga ega bo‘lgan. Bu bir nechta shahar-davlatlar va hatto butun qit’alarni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan juda katta jamoalar hisoblanadi. Ular nafaqat aholi miqdori, balki insoniyatga ta’siri nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir, ushbu jamoalarning har biri dunyo tarixidagi nufuzli ishtirokchilardan bo‘lishgan. Shuni ta’kidlash kerakki, jamoalar o‘rtasidagi tafovutlar juda muhim, asosiysi bu har xil ijtimoiy-madaniy organizmlarning yaxlitligini ifodalaydi. sivilizatsiyalar, yuqorida aytib o‘tilganidek, hayot sikliga ega, tug‘ilishdan to o‘limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni bosib o‘tadi. Barcha sivilizatsiyalar cheklangan, faqat ba’zilari uzoq umr ko‘radi, boshqalari qisqaroq umr ko‘rgan.

Dunyo tarixida sivilizatsiyalarning yagona ilmiy va butun dunyo olimlari tomonidan tan olinadigan ro‘yxati mavjud emas. Masalan, amerikalik jamiyatshunos Spengler quyidagi to‘qqiz madaniyatni ajratib ko‘rsatdi. Ular: Misr, Bobil, Hind, Xitoy, Meksika, Antik davr, Arab, Yevropa, Rus sivilizatsiyalari bo‘lsa, britaniyalik faylasuf Toybni esa 20 dan 36 tacha sivilizatsilarni sanab o‘tadi: G‘arbiy dunyo, Vizantiya va Bolqonning pravoslav xristian sivilizatsiyasi, pravoslav xristian (rus) sivilizatsiyasi, Arab jamiyat (Islom dunyosi), Xitoyda Uzoq Sharq sivilizatsiyasi, Yaponiyada va Koreyada Uzoq Sharq sivilizatsiyasi, Hindiston jamiyat, Eron jamiyat, Yunoniston jamiyat (yunon-rim sivilizatsiyasi) va boshqalar.

"Sivilizatsiya - bu madaniyatning muqarrar taqdiridir. Bu cho'qqi zabit etilsa, uning cho'qqisidan tarixiy morfologiyaning eng so'nggi va eng qiyin masalalarini hal qilish mumkin" [4].

Spengler fikricha, Yevropada madaniyatdan sivilizatsiyaga o'tish jarayoni XIX asrda boshlangan bo'lib, 1918 yilda nashr etilgan "Yevropa quyoshini botishi" kitobi nomining o'ziyoq uning tanazzulini yoki yangidan shakllanishini taxmin qiladi. Hayot suratlari beqiyos darajada tezlashayotgan bir davrda, bir necha asrlar oldin shakllangan ilmiy sotsiologik oqimlarning ham zamonga moslashishini talab etmoqda. Bu jarayon esa albatta jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir qiluvchi "yangi madaniy oqimlar"ga o'z navbatida qarshi qaratilishi tabiiydir. Shu o'rinda, bir necha ijtimoiy oqimlarni shakllanish tarixi va hozirgi zamondagi ahamiyatiga to'xtalib o'tsak. XIX asr boshlarida fan va falsafa o'rtasidagi bog'liqlik masalalarini tahlil qilish nuqtai nazari asosida shakllangan pozitivizm oqimi hususida fikr bildirib shuniyatish mumkinki, boshqa ijtimoiy-falsafiy oqimlar kabi pozitivizm ham o'zining yangilangan (neo) yo'nalishiga ega. Bu esa o'z navbatida pozitivizmning zamon bilan hamnafas uning talab va taklifi doirasida o'zgarayotganiga yaqqol misol bo'la oladi.

Mumtoz pozitivizmning ma'no va mazmun doirasi nisbatan torroqdir: "Pozitivism-G'arb mamlakatlarida ko'p tarqalgan falsafiy tafakkurning bir ko'rinishi bo'lib, uning diqqat e'tibori markazida falsafa va fanning o'zaro munosabati muammosi turadi" [5].

Insoniyat kamoloti uchun xizmat qiladigin har qanday oqim va yo'nalishlarni chuqur ilmiy tadqiq etish va uni zamon ruhiga mos ravishta, aniq faktlar va ishonchli dalillar bilan boyitib borilishini davrning o'zi taqozo etmoqda. Bunday oqim va harakatlar hususida ingliz olimi Entoni Giddens quydagicha fikr bildiradi: "Hayot andozalarini yaxshilashga qaratilgan har qanday harakatlar xato emas, to'g'ri ma'lumotlarga tayangandagina muvaffaqiyatga erishish ehtimolini yaratadi." [6]. Ilm bashariyat uchun xizmat qilmasa, jamiyat undan hech naf topmasa, bunday ilm ahamiyatsiz va hech qanday aksilogik qiymatga ega bo'lmaydi. Jamiyatimiz yoshlarini tarbiyalash va yuksak salohiyatli, ilmli, raqobatdosh kadrlarni tarbiyalash jarayonida eng zamonaviy falsafiy-sotsiologik oqimlardan habardorlik uni hayotda va ilmiy faoliyatda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish hozirgi davr ilm-fanining dolzarb muammosiga aylandi.

Jamiyatimiz taraqqiyotida yuz berayotgan islohotlar, ularning mohiyatini anglashda quyidagi fikrlarga e'tibor qaratish lozim: "Biz bugun insoniyat tarakkiyotining, ta'bir joiz bo'lsa, keskin burilishlar ro'y berayotgan tarixiy bosqichida yashamoqdamiz. Keyingi yillarda Yer yuzida keskin geosiyosiy o'zgarishlar ruy berdi, xalqaro miqyosda xavfsizlik va barkarorlik tizimi izdan chiqmoqda. Globallashuv jarayonining tobora shiddatli tus olishi nafaqat insoniyat imkoniyatlarini kengaytirmoqda, balki ziddiyatlarning keskinlashuvi, rivojlangan va qoloq davlatlar o'rtasidagi tafovutning o'sishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida tinchlik va barqarorlikka raxna solayotgan,

mohiyati va ko‘lamiga ko‘ra transmilliy hususiyatga ega turli xattiharakatlar sodir etilmoqda” degan edi prezidentimiz Shavkat Mirziyoev. Ushbu fikrlar masalani yotirishda muhim ko‘rsatma vazifasini o‘taydi [7]

## XULOSA

Jamiyat taraqqiyoti tahliliga nisbatan sivilizatsion yondashuv nafaqat jamiyatdagi o‘zgarishlar sodir bo‘lishini tadqiq etish bilan bog‘liqligi bois, balki insoniyat rivojining bungacha bo‘lgan davrlari va bosqichlarining tahlili bilan ham bog‘liq bo‘lganligi uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, sivilizatsion yondashuv yordamida hozirgi zamon sivilizatsiyasi (informatsion, texnikaviy) rivoji va muammolari doirasida jamiyat taraqqiyoti istiqbollarini bashorat qilish ham mumkin. Bugungi kunda jamiyat hayotida ro‘y berayotgan tezkor o‘zgarishlar hozirgi davrning jiddiy va munozarali muammolaridan biri bo‘lganligi bois ushbu masalani chuqur va har tomonlama o‘rganishni taqozo etmoqdaki, bizningcha, bunday yondashuvni o‘z vaqtida va zaruriy amalga oshirilgan gnoseologik tadqiqot sifatida baholash imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Farobi «Fozil odamlar shaxri». T., 1993, 186 bet.
2. Buyuk siymolar, allomalar. T., 1995, 51 bet.
3. Подробнее см.: Поздяева С.М. Человек и его мир: Учебное пособие. - Уфа: Изд-е БашГУ, 1996.
4. Шпенглер О. Закат Европы. 128 ; 163—164 бетлар 5. Фалсафа қомусий луғат. Тошкент, 2004. 330-бет.
6. Энтони Гидденс. Социология. Тошкент. 2002. 45-бет
7. Шавкат Мирзиёев. “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз” Тошкент. 2017. 33-бет.